



## O'QUVCHILARDA IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

*Urazov F.I.*

*Denov tadbirkorlik pedagogika instituti pedagogika va psixologiya  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** o'quvchi, islohot, tashabbuskorlik, ijtimoiy – professionallik, barkamollik, ma'naviy-ahloqiy fazilatlar.

**Ключевые слова:** студент, реформа, инициатива, социально-профессионализм, добросовестность, духовно-нравственные качества.

**Key words:** student, reform, initiative, social and professionalism, integrity, spiritual and moral qualities.

### **Резюме:**

Mazkur maqolada o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari, uning mohiyati va tahlili, jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati, intellektual salohiyatli barkamol yosh-avlodni tarbiyalash, uzluksiz ta'lim tizimida milliy g'oyaga doir bilim va tafakkurini yuksaltirish kabi yuksak insoniy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik ta'sir vositalari orqali yoritilgan.

### **Резюме:**

В данной статье рассматриваются педагогические аспекты развития социально-активных гражданских компетенций у студентов, ее сущность и анализ, духовно-просветительская деятельность общественной жизни, воспитание зрелого молодого поколения, обладающего интеллектуальным потенциалом, знанием и мышлением о национальной идее в непрерывном процессе. Обсуждается система просвещения через средства педагогического воздействия на развитие высоких человеческих качеств, таких как поощрение.

### **Summary:**

This article examines the pedagogical aspects of the development of socially active civic competencies in students, its essence and analysis, spiritual and educational activities of public life, education of a mature young generation with intellectual potential, knowledge and thinking about the national idea in a continuous process. The system of education through the means of pedagogical influence on the development of high human qualities, such as encouragement, is discussed.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida ijtimoiy faol, barkamol yosh-avlodni tarbiyalash eng muhim muammo sifatida ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining

2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida soʻzlagan nutqida yoshlar masalasiga toʻhtalar ekan: “mamlakatimiz aholisining yarmidan koʻpini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib oʻrin egallashi va oʻz salohiyatini namoyon etishi boʻyicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”. Oʻzbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat koʻrsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bagʻishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli oʻtkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish boʻyicha Oʻzbekiston tashabbusini qoʻllab – quvvatlashga chaqiraman» - degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng eʼtirof etilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ning 2019 yil 19 mart kuni ilgari surgan besh muhim tashabbuslari ham ijtimoiy faol talaba-yoshlarni tarbiyalashda taʼlim mussasasi oʻrni va ahamiyati juda yuqori. Chunki, ushbu ilgari surilgan “beshta eng muhim tashabbusda yoshlarga boʻlgan eʼtiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, sanʼat, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari oʻrtasida kitobxonlikni targʻib qilish, xotin-qizlar bandligini taʼminlash” kabi vazifalar mamlakat ertangi kuni uchun, yetuk, yoshlarni barkamol avlod boʻlib voyaga yetishlarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim oʻrin egallaydi.

Mamlakatimizda yoshlarning har tamonlana yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim oʻrin tutishi bilan birga, uning ijtimoiy faol fuqaro boʻlib faollashuvi muhim oʻrin tutadi. Oʻquvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala boʻlib bormoqda. Fuqaro, faol fuqarolik tushunchalari mazmun – mohiyati toʻgʻrisidagi tasavvur bilan bogʻliq yondashuvlar, turli darvlarda turlicha talqin qilingan. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish taʼlimining maqsadi, doimo insonni jamiyatda faol faoliyatga, davlatning ijtimoiy – siyosiy hayotida faol ishtirok etishga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega boʻlishga intilish boʻlgan. Shunga qaramay, inson hayotida davlat va jamiyatning roli turlicha talqin etilgan.

Adolatli demokratik jamiyatda ijtimoiy faol fuqarolik tarbiyasining oʻrni umuman oʻzgacha talqin etiladi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish oʻquvchilarda jamiyatda yuz berayotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish orqali, jamiyat hayotida boʻlayotgan oʻzgarishlarda faol ishtirok etish, oʻzining faol fuqarolik burchi, majburiyati va huquqlarni bilish, unga rioya etish, huquqiy munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega boʻlish kabi sifatlar rivojlantiriladi. Oʻquvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda “Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi: Fuqarolik jamiyati”, “Siyosatshunoslik”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Milliy gʻoya:



asosiy tushuncha va tamoyillar” fanlari orqali demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, xalq farovonligi, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi.

Xorijiy mamlakatlarda yoshlarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirish “Fuqarolik ta’limi” fani asosida singdirib boriladi. “Fuqarolik ta’limi” fani yoshlarda fuqarolik jamiyati, demokratik davlat qurish asoslari singdiriladi, chunki fuqaroning ijtimoiy roli – bu avvalo, demokratik jarayonlar va institutlarda ishtirok etishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, Avstriyada “fuqarolik ta’limi” o‘rniga ko‘pincha “siyosiy ta’lim” atamasi qo‘llaniladi. Frumin o‘z tadqiqotlarida T.Kalsuonisning “demokratik fuqarolik ta’limi” tushunchasidan foydalanishni taklif etganligi, chunki u o‘z tadqiqot ishida “fuqaroning barcha qadriyatlari, ko‘nikmalar va bilimlar to‘g‘risida emas, balki demokratik mexanizmlarni ishlab chiqish va rivojlantirish muhimligini nazarda tutadi” . Masalan, Avstriyada 1978 yildan «Ta’lim muassasalarida fuqarolik ta’limi» Qonuni amal qilib keladi, qonunda: «fuqarolik ta’limi shaxs rivojlanishi hamda umuman jamiyatning kelgusi rivojlanishining asosi hisoblanadi. Fuqarolik ta’limining asosiy qoidasi – demokratik ongini, umumevropa tafakkuri va dunyoda ochiqlikni tarbiyalash, u insoniyatning global muammolarini tushunishga bog‘liq bo‘ladi” deya ifodalangan. Mazkur fan doirasida pedagog kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qaratilgan.

Niderlandiya ta’lim tizimida mamlakatda yosh avlodni tarbiyalashda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning o‘rni beqiyosdir. Chunki, mamlakatda yosh avlod tarbiyasi “Fuqarolik ta’limi” fani orqali yo‘naltirilgan : “O‘quvchi-yoshlarni tarixiy va siyosiy-boshqaruv bilimlari, tasavvurlari va malakalari bilan ta’minlash hisoblanadi va ularga ko‘ra, yoshlar turli hayotiy tizimlarning a‘zolari sifatida, iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar, davlat va butun dunyo fuqarolari sifatida tarixiy yuzaga kelgan ijtimoiy tuzilmalarda ishtirok eta oladilar”. Shu tariqa, belgilangan maqsad orqali faol fuqarolik pozitsiyani shakllantirish uchun bilimlar berish, ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish orqali shart-sharoit yaratish bo‘yicha aniq vazifalarni yechish masalasiga e’tibor berilgan. Angliya va Irlandiyada fuqarolarga ijtimoiy siyosiy bilimlarni, fuqarolik ta’limi bo‘yicha fakultativ kurslar orqali singdirilgan. Ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasiga ega yosh avlodni tarbiyalashda boshlang‘ich va asosiy maktab tizimidan e’tibor bera boshlagan. O‘quvchilar uchun turli ta’lim modullari asosida 2000 yildan boshlab Angliyada fuqarolik ta’limi majburiy ta’limga aylandi. Shu tariqa, yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish orqali fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi rolini oshirishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida qaraladi.

Chunki, o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish demokratik huquqiy davlat qurish sharti va jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, uning barqaror rivojlanishini bosqichma-bosqich oshib borishi sifatida qarash mumkin.

Mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim tizimida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 - yil 6 apreldagi « Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, Kasb-hunar ta’limining Davlat Ta’lim Standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida »gi 187-son Qarorida «Tarix», «Davlat va huquq asoslari», «Konstitutsiyaviy huquq» fanlari orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini o‘quvchilarda shakllantirish vazifasi ilgari surilgan bo‘lsa, ushbu shakllangan kompetensiyani oliy ta’lim tizimida rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida aniqlashtirish, bizningcha quyidagi fikr mulohazalarni ta’kidlab o‘tish imkonini berdi:

- yosh avlodni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi –ijtimoiy faol fuqaroni kamol toptirish;

- o‘quvchilarga demokratik davlat qurish g‘oyasini singdirib borish orqali jamiyat hayotning barcha sohalarida ijtimoiy faol ishtirokini ta’minlash;

- o‘quvchilarda millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, xalq farovonligi, komil inson g‘oyalarini singdirgan holda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirokini ta’minlash;

- o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish;

- o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlanishi “Mentorlik”, “Talaba minbari” kabi ijtimoiy loyihalarda faollik ko‘rsatish orqali oshirib borish;

- o‘quvchilarni oliy ta’lim muassasalaridagi, “Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish” orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizida yosh-avlodni ya’ni bo‘lajak kadrlarni kompetentli qilib tarbiyalash eng birinchi masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatlari hamda xalqiga qilgan Murojaatnomasida yosh-avlodning zamonaviy kasb egasi va kompetentli shaxs sifatida tarbiyalanishi masalasiga to‘xtalib: shunday ta’kidlagan edi, “har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor



yoshlarimizga tayanamiz” deb ilgari surgan tashabbus va g’oyalarning asosida kompetentli shaxs maslasi muhim hisoblanadi.

1. Ma’lumki, Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya’ni halq og’zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi tug’risidagi asarlarda, Alpomish, To’maris va Shiroq tug’risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, halq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko’plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma’naviy merosimizning yorqin namunasi – «Avesto» zardo’shtiylikning muqaddas kitobi bo’lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o’sha davrdagi milliy G’oyalar yorqin ifodalangan.

2. Shuningdek, Yangi O’zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirish shiddat bilan rivojlanib globallashib integratsiyalanayotgan dunyo shiddat bilan o’zgarib, milliy o’zlikni anglashi, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, shaxs ma’naviyatini mustahkamlash jarayonlarida turli yot g’oyalarning salbiy ta’siri ortib, odamlarning ongi-shu’uri va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bir davrda ta’lim-tarbiya, targ’ibot va tashviqot ishlari jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, milliy g’oya, millat va ularning o’zaro bog’liqligi masalasining dolzarbligi yanada oshmoqda. Xalqning ma’naviy hayotida o’zligini anglash muhim o’rin tutadi. Shunday ekan, talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirishda ayni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalanishini ta’lim-tarbiya jarayonining avvalo, milliy o’z-o’zini anglashining mazmun-mohiyatini, xalq, millat tushunchalari hamda ularning o’zaro aloqadorlik jihatlariga alohida e’tibor qaratish lozimligi qayd etilmoqda.

Demak, bizning nazarimizda ilmiy izlanishlar natijasi o’laroq umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlik alohida ta’rif berish va uni rivojlantirish sharoitlarini aniqlashga e’tibor qaratilgan bo’lib, u umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni jamiyatning ma’naviy hayotida alohida o’rin egallaydi chunki, ijtimoiy hayot bilan bog’liq murakkab vazifalarni haletish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirish talabalar ma’naviy dunyoqarashiga oid hodisa sifatida talqin qilish va milliy o’zlikni anglash kompetensiyalari ta’rifiga motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli komponentlarning o’zlashtirish natijasiga erishish orqali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, o’sib kelayotgan yosh-avlod tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy-ruxiy kamolot, milliy o’zlikni anglash asosiy komponenti sifatida o’zoro a’loqalar maydoniga chiqib, ijtimoiy-tartib doirasida belgilangan hulq-atvor va ijtimoiy hayot faoliyatning uzviy va uzluksizligi sifatida alohida o’rin egallaydi.

Ma'lumki, Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirish ta'lim jarayonida talabalarga, vatanparvarlik, milliy iftihar ruhida shakllanadigan bilishning o'ziga xos shakllaridan biridir deb etirof etish mumkin. Demak, shaxsning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, jamiyat, ijtimoiy qatlami, siyosiy partiya va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining muayyan maqsadlari ifodasi, ularni bu yo'lda birlashtirishi, uyushtirishi, faoliyatga undashi, safarbar qilishi» deb ifodalab o'tgan.

Demak, Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi yoshlarda bunyodkor g'oyalarning mazmun-mohiyatan sog'lom yoki nosog'lom, ezgu yoki yovuz, bunyodkor yoki buzg'unchi g'oyalarning bo'lishi mumkinligini yoritish hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalanishi muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Bizga ma'lumki, umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirish talabalarning kundalik fikrlaridan farqli yana o'z tafakkurida paydo bo'lsada, keng jamoatchilik manfaatlarini ifoda etishda o'z milliy qadriyatlari asosida tarbiyalansa muhim o'rin tutadi. Demak, talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlikni rivojlantirish asosiy omil sifatida o'ziga ishonch va e'tiqodga aylanib e'tirof etilganligi sababli talabalarni vatanga sadoqat ishonch, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topishi, qadrlar tayyorlashda mamlakat taqdiri uchun jon kuydiradigan kadrlar etib tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi" 2020 y. 30 dekabr №-255 son
2. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 martdagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar"nutqi. 2020 y. 20 mart
3. Feldshteyn D.I. Psixologiya razvivayumeynsya lichnosti: izbr. psixol. Trudy / D.I. Feldshteyn. - M.: Flinta, 1996. - 512s.
4. Patrik Dj. Obuchenie demokratii v globalnom, mejdunarodnom i sravnitelnom aspektax: predlojeniya po sovershenstvovaniyu grajdanskogo obrazovaniya v shkolax. // Grajdanskoe obrazovanie: soderjanie i aktivnye metody obucheniya» M., Logos. 2005.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi « Umumiy o'rta va o'rta maxsus, Kasb-hunar ta'limining Davlat Ta'lim Standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-son Qarori
6. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi" 2020 y. 25 yanvar №-19 son
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
8. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar.. (kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalari doirasida). T.: 2002.-19 b